



AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARI NATIJASIDA HUJJATLARNI SOXTALASHTIRISH JINOYATLARINI OLDINI OLISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN ISHLAR SAMARASI

IBROHIMOV JASURBEK SHERMUHAMMADOVICH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining
(ombudsmanning) Andijon viloyatidagi mintaqaviy vakili, maxsus unvoni
podpolkovnik*

jasurbekibrohim@gmail.com

ANNOTATSIYA: Bugungi kunga kelib, hujjatlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar sodir etilishi usullari o‘zgarganligi bu turdagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Bizga ma’lumki bu turdagi jinoyatlar asosan davrlarga hamda makonga qarab sodir etilish usullari turlicha bo‘lib o‘zgarib turadi.

Kalit so‘zlar: Hujjatlarni soxtalashtirish, Jinoyatning oldini olish, Elektron hujjatlar, Islohotlar, Davlat xizmatlari, Elektron imzo, Murojaatlarni ko‘rib chiqish tizimi, Arxiv tizimi, Raqamlashtirish, Yuridik hujjatlar xavfsizligi.

ASOSIY QISM

Hujjatlarni soxtalashtirishning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Buni mavjud tahlillar asosida ko‘radigan bo‘lsak, fuqarolik pasporti olish uchun, ishga kirish uchun, chet davlatlari tomonidan berilgan diplomlarni haqiqiylikini tasdiqlovchi nostrifikatsiya guvohnomalarini olish uchun, oliy o‘quv yurtlarini tamomlaganlik haqidagi diplomlarni olish uchun, pensiya va nafaqa pullarini olish uchun, mavjud jarimalarni to‘langanligi haqidagi to‘lov kvitansiyalarini olish uchun, turar joylarga egalik qilish uchun va hokazo kabi usullari mavjud.



Bu kabi jinoyatlarning yuqoridagi kabi turlari kelib chiqishi asosan ma'muriy ish yuritishni hanuzgacha eski usullaridan foydalanib kelinayotgani jinoyatchilarga o'z maqsadlarini amalga oshirishda keng qo'l keladi. Hozirda davlatimiz rahbari tomonidan ma'muriy ish boshqarish usulini tubdan o'zgartirish bo'yicha olib borayotgan islohotlari natijasida bu kabi jinoyatlarning sodir etilishi o'z-o'zidan oldi olinishi kuzatilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining chegara hududlaridagi fuqarolar davlatimiz mustaqilligiga qadar qo'shni davlatlar hududlarida istiqomat qilib, ushbu davrdagi amalda bo'lgan tartib-qoidalar bo'yicha yashash manzilini boshqa davlat hududlariga ko'chirib olishi natijasida O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilib, ma'muriy-hududiy bo'linishini amalga oshirganidan so'ng 1992 yil 2 iyul kuni "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Bu qonun 1992 yil 10 iyuldan kuchga kirdi va o'z-o'zidan qonun bo'yicha u qabul qilingan kungacha O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxat asosida yashab kelgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanishi belgilab qo'yildi.

Biroq, qonun qabul qilingan bo'lsa-da, shu davrlarda qonun mazmun-mohiyatini tushunib yetmagan yoki ish joyi borligi sababli ish joyidan ajralib qolmaslik sababli boshqa davlat hududida ro'yxatdan o'tib yashab kelgan fuqarolarning beparvoligi natijasida ularning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi degan maqomga ega bo'lmay qolishiga sabab bo'lgan.

Davlat o'rtasidagi ma'muriy hududlar aniq belgilanib, chegaralar mustahkamlanish boshlangan 1997–1998 yillardan so'ng fuqarolar O'zbekiston fuqaroligini qabul qilishda muammolarga duch kela boshlagan.

Aynan shu davrda, fuqarolikni qabul qilish bo'yicha insonlar huquqiy bilim saviyasiga ega bo'lmagan holda turli davlat idoralarida ishlovchi mansabdor shaxslar orqali fuqarolik qabul qilish bo'yicha turli iltimoslar qilishi natijasida soxta hujjatlar tayyorlashga ehtiyojlar tug'ila boshlagan. Bu ishlar o'z navbatida,



osongina hal etilmasligi sababli ayrim mansabdor shaxslar aralashuvi natijasida kelib chiqishiga sharoit yaratilgan.

Tergov tizimida bu turdagi jinoyat ishlarini tergov qilinishi davomida shu ayon bo'lgan: birgina fuqarolik pasportini soxtalashtirib olish uchun dastlab tug'ilgan haqidagi guvohnoma soxta tayyorlanishi, so'ng esa shaxsni haqiqatan ham yashab kelganligini tasdiqlovchi mahalla fuqarolari yig'inlari hamda arxiv ma'lumotnomalari kabi boshqa hujjatlar ham soxtalashtirilishi kuzatilgan.

Bu o'z navbatida bitta hujjatni olish bo'yicha qilingan noqonuniy ish ortidan bir necha hujjatning soxtalashtirilishi, natijada aybdor shaxslarning ortib ketishi, shuningdek eng achinarlisi bu ishda davlat idoralarining mansabdor shaxslari aralashganligidir.

Bu kabi jinoyatlar fuqarolik berish tartibi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'z-o'zidan sodir etilishi kamayishi kuzatilgan. Jumladan, uzoq yillar davomida O'zbekiston hududida yashab kelgan, biroq fuqarolik pasportiga ega bo'lmagan shaxslarning tegishli tartibda fuqarolik olishi bo'yicha olib borilgan ishlarda hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishni, pasport rasmiylashtirish tartibini elektron tizimlarga o'tkazilganligi va onlayn tizimga o'tkazilganligidan ham ko'rish mumkin.

Xuddi shunday misol — fuqarolarning chet davlatlarda ishlab yoki yashab kelgan davrida o'sha davlatda jinoyat yoki boshqa huquqbuzarliklarni sodir etilishi natijasida o'sha davlatdan deportatsiya qilinishi davomida ham pasportlarga soxta ma'lumotlar kiritish kabi jinoyatlar kelib chiqishiga sharoit yaratib bergan.

Bu kabi jinoyatlardan misollar keltiradigan bo'lsak, ilgari deportatsiya qilingan shaxs kelgusida takroran o'sha davlatga borish maqsadida, tug'ilganligi haqidagi guvohnomasida ismi-sharifini o'zgartirib olishi va shundan so'ng fuqarolik pasporti olish, bu jarayonda FHDYo bo'limi mansabdor shaxslari tegishli tartibda tekshiruvlar o'tkazmasdan, o'zgartirish maqsadini yashirib soxta tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarni rasmiylashtirishi natijasida kelib chiqqanligi



yillar davomida jinoyat ishlari bo'yicha olib borilgan tergov harakatlari davomida kuzatilgan.

Jinoyatning bu usuli esa barcha davlatlarga kirish-chiqish davomida, shaxsiy identifikatsiya kodlari joriy etilib, bu to'liq ishga tushganligi natijasida o'z-o'zidan hujjatlarni soxtalashtirishning bu usullarini yo'qolishiga erishilgan.

Qolaversa, amaliyotda chet davlatlarda tahsil olgan fuqarolarimizga berilgan diplomlarini O'zbekiston Respublikasida qayta sinovdan o'tganligi va mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni berilishida yuzaga kelgan talablarning o'ta murakkabligi ham mazkur ruxsat beruvchi hujjatni soxtalashtirishga sharoit yaratgan deb aytish mumkin.

Bu kabi holatlar aniqlanib, tergov davomida jinoyatning kelib chiqish sabablari o'rganilib, ushbu turdagi jinoyatni kelgusida oldini olish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, har takdim etilgan chet davlatlarda tahsil olgan shaxsning davlatimiz hududida mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borishiga ruxsat beruvchi hujjat u taqdim etilgan zahoti tegishli tartibda Vazirlar Mahkamasining Davlat test markaziga so'rov yuborish orqali tekshirish tizimini qat'iy amalga kiritilishi hamda bu ruxsatni berish uchun o'tkaziladigan sinovlardagi ayrim to'siqlarni olib tashlanishi ham jinoyatning bu usuliga chek qo'yilishiga zamin yaratdi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ayrim turdagi hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatlari sodir etilishi tub ildizlariga nazar soladigan bo'lsak, bularning kelib chiqishiga hali-hanuz eskicha tartibda ishlash tizimining mavjudligi, arxiv hujjatlari elektron shaklda to'liq shakllantirilmaganligi natijasida yuzaga kelgan.

Hozirda davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan murojaatlarni ko'rib chiqish tizimidagi o'zgarishlar, Davlat xizmatlari agentligining tashkil etilishi



hamda elektron imzo tizimining joriy etilishi ham hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatlari sodir etilishini oldini olishda juda katta omil bo'lgan deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023-yil nashri.
3. Normurodov B., Xolboyeva G. Huquq asoslari. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni: "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi".